



XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH ISHLARINING MAZMUNI

Norqulov Uchqun Munavvarovich,

Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston

u.norqulov2019@gmail.com

+998915316898

Muradov Rustam Murodovich,

Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston

+998937224430

Sadikov Dilmurod Otamurodovich,

Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston

+998997072988

Annotatsiya.

Maqolada umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari va unga ijodiy yondashuv, kasb madaniyati borasidagi takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar:

Integratsiya, o'quv dasturlar, tizim, ko'nikma, malaka, diagnostik suhbat, texnologik jarayon, ta'lim.

Zamonaviy texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shunga hamnafas tarzda ta'lim tizimini ham bosqichma bosqich isloh qilib borish zamon talabi doirasida jadallashib bormoqda. Keyingi yillarda mamalakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108 sonli farmoni o'z vaqtida chiqarilgan va o'ta muhim hujjatdir. Bu farmonda dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish ko'zda tutilgan. Ushbu farmonda Xalq ta'limi vazirligiga topshiriq sifatida o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rinni topishi, kasbiy faoliyatida muvafaqqiyatga erishishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi"ni joriy etish, 7-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma'lumotlar

bazasini yaratish, 7-sinf o'quvchilari uchun har oyda bir marta "kasblar olamiga sayohat" mavzusida kurslar olib borish, 8-sinf o'quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba "Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda, o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblarga yo'naltirish, 9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish ko'zda tutilgan. Mazkur hujjat mazmunida qayd etilganidek, "umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni kasb –hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari va moyilliklari, layoqatlari hamda qobilyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish bilan bir qatorda o'smirlarni kasbiy o'zligini anglash va hayot yo'lini tanlashda maslahat beruvchi omil" sifatida qaralishi nazarda tutilgan.

Hukumat qarorlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan o'quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakllantirishda, ularni ta'limning keying turiga to'g'ri jalb qilish uchun kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan o'quv- metodik qo'llanmalar, ilmiy -uslubiy tavsiyalar, me'yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo'lgan hamda yangilanib, o'zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog'liqdir. Shu bois keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimida tashkil etilgan huquqiy me'yoriy hujjatlar mazmunini yanada takomillashtirish vazifalarini hal etishi borasida bir qator ilmiy-amaliy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablari o'quvchilarning qiziqishlari va moyilliklari, tug'ma layoqatlari hamda qobilyatlarini aniqlash borasida "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari"ning yangi tahrirdagi majmuasi yaratildi.

Avvalo maktabda umumkasbiy fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tatbiq etish, o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish, kasblar olami bilan tanishtirish, kasbga ko'nikma hosil qilish, moslashish masalalariga doir mehnat ta'limi fanini o'qitish jarayoni asosida kasbga yo'naltiruvchi dastur ishlab chiqilishi lozim. Bunda o'quvchi o'rta maktabda ixtisoslik yo'nalishining istiqboldagi taraqqiyoti va unga kasbiy jihatdan moslashib borish yo'llari to'grisida, mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha davlat ta'lim standartlari mazmunini, kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini, o'rta maktabda o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida amalda kasbga yaroqlilikni, professional rejalarni to'g'ri tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi esa ularni qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash, kasb hunarga yo'naltirish ishlarini rejalashtirishi lozim. Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish, bandlik xizmati bilan ishlash, o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash bo'yicha anketalar, diagnostik-differensial savolnomalar va testlardan foydalanish, ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan ishlash malakalariga ega bo'lishi kerak bo'ladi. O'quvchilar fanni o'zlashtirish jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish munosabatlari to'grisida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar. Umumo'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mehnat ta'limi tarkibida kasb- hunarga yo'naltirishda ularning zamonaviy va milliy kasb hunarlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. O'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda, maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, seminar va laboratoriya darslarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim. Kasb- hunarga yo'naltirish

ishlari mazmuni va ahamiyati bu: kasblarning tavsifiy xarakteristikasi – profессиogrammasidir.

Maktabda mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga yo'naltirish doirasida boshqa soha mutaxassisliklar bilan tanishtirish ishlari ham olib borilishi lozim va o'quv muassasasi atrofidagi korxonalar bilan tanishtirish, maktabdan tashqari tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Kasb-hunarga yo'naltirishning tarkibiy qismi sifatida qayd etish mumkin, bu sinf rahbarining kasb-hunarga yo'naltirishdagi o'rnini hamda o'quv muassasasi rahbarining kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishi, o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosarining vazifasi, o'quv muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish mazmuni bilan amalga oshiriladi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimida IQ testlarining o'rnini nihoyatda kattadir. Darsdan hamda o'quv muassasasidan tashqari kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini rejalashtirish va tashkillashtirish davomida ekskursiyalarga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish hamda uning yakuni bo'yicha hisobot ishlari olib borilishi lozim.

To'g'arak ishlarining rejalarini tuzish, to'g'arak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari, ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish, o'quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmalari hamda o'quvchilarning kasbiy mahorat tanlovlarni o'tkazish zarur bo'ladi. Kasb tanlashga doir reja tuzishga o'quvchilarni avvalom bor, ularni kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash, tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash ishlaridan boshlanadi. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari quyidagilarda: faning mazmuni, maqsadi va vazifalari, kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati, umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Kasbga yo'naltirish bosqichlarining mazmuni kuzatish, diagnostik suhbatlar bilan amalga oshiriladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish borasida, o'quvchilarga kasb tiplari, guruhlari, sinflari, o'quvchilarning xususiyatlarini o'rganib tashxisdan o'tkazadilar va tavsiyalar beradilar, kasblar tasniflarining umumiy ta'rifi, o'quvchilarga kasb tushunchasining ma'nosini yoritib berish, ularni kasblarning tasniflari bilan tanishtirish, o'quvchilarga har bir soha kasblarining jamiyatda tutgan o'rnini haqida ma'lumot berilishi lozim. Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb-hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakllantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umum o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me'yoringin belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur. O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hakoza)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat

jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib, uni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. O'quvchi-yoshlar o'rtasida kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra texnologik bo'lishi lozim. Chunki, muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to'g'risida oldindan to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish imloniyatini beradi.

Minglab kasblar olamidani o'quvchi tanlagan kasbiy qarori bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lgan kasbiy sifatlarni hisobga olish va ularni boyitish xususida qat'iy fikrga ega bo'lishi, kasb-hunarga yo'nalganligi samaradorligining muhim omillari bo'la oladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv-bu o'quvchi-yoshlar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy va amaliy ko'nikma hamda malakaga aylantirish, ularga faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amalyotchi psixolog va kasb-hunarga yo'naltiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmuyi bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarga ta'lim –tarbiya beruvchi o'qituvchi, ustoz, murabbiy, mutaxassis, rahbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar sohibi bo'lishi lozim.

Darhaqiqat o'quvchi-yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashni, uni o'rganish, malakali mutaxassis bo'lib yetishishida ta'lim-tarbiya beruvchilarning ma'naviyati, axloqiy fazilati, bilimda mahorati, mehnatsevarligi, fidoiyligi bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy kamoloti muhim ahamatga ega. Shuningdek ularning kasb madaniyati ham alohida o'rin tutadi. Zero, mutaxassis xodimning mahorati yoki kasb madaniyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajagini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis pedagoglar, eng avvalo, insoniy sifatlar sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: “Fan va texnologiya” 2014.- 147 b.
2. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod-moliya” 2009.- 156 b.
3. Xolmatov P.Q., Parmonov R. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda, mehnat ta'limi hamda kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishdagi muammolar va yechimlar. Maktab va hayot ilmiy jurnali. 2010-y. 4-son.